XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 12-yanvar VII-17-3-5-79-K/26 Navoiy shahar

Navoiy shahar boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qoʻllaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 16^2, 24-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 383, 412, 422, 429 va 437-moddalariga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk soligʻini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” PF-6121-sonli Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, 2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta’minlash, Soliq qoʻmitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli xati, Navoiy shahar soliq inspeksiyasining 2025-yil 9-dekabrdagi 20/26-59187-sonli xati Navoiy shahar boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qoʻllaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalarini tasdiqlash hamda bildirilgan fikr va mulohazalarini inobatga olib, xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2026-yilda Navoiy shahar boʻyicha yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligida moʻljallanmagan yerlarini bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 1 gektar uchun 55,1 mln.soʻm, jismoniy shaxslar yerlarining 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi mutlaq miqdori 377,0 soʻm belgilanganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

-shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xoʻjaligi uchun moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslar boʻyicha 2026-yilda Navoiy shahar uchun mutlaq miqdorda belgilangan

yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

- 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksining 445-moddasi bilan o‘rnatilgan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

- 2026-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha Soliq kodeksining 452-moddasi bilan o‘rnatilgan soliq stavkalariga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Xalq deputatlari shahar Kengashi tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini taqdim etilishini ta’minlasin.

5. Shahar hokimligi ushbu qaror bilan ma’qullangan Navoiy shahar bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun ayrim soliqlarni hisoblab chiqarish maqsadida qo‘llaniladigan koeffitsentlar, mutlaq miqdor summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni **“Do‘stlik bayrog‘i”** va **“Знамя дружбы”**gazetalari hamda shahar hokimligining rasmiy veb saytida e’lon qilsin.

6. Xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining 2025-yil 17-yanvardagi Navoiy shahar bo‘yicha 2025-yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hamda mol-mulk solig‘ini hisoblashda qo‘llaniladigan eng kam qiymatni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-14-5-79-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (O‘.Haqberdiyev) va xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi **BAZAROV BAXTIYOR YAXSHILIKOVICH**

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-17-3-5-79-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahridagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Janubiy MFY	1,85	697,45	1,80	122 112 000,0
2	Lochin MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
3	Kimyogar MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
4	Istiklol MFY	1,45	546,65	1,40	94 976 000,0
5	Zarafshon MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
6	Yoshlik MFY	1,45	546,65	1,40	94 976 000,0
7	Vatan MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
8	Guliston MFY	1,60	603,20	1,80	122 112 000,0
9	Yangiariq MFY	2,00	754,00	1,40	94 976 000,0
10	Binokor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
11	Baxor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
12	Me‘mor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
13	Muruvvat MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
14	Matonat MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
15	Ishonch MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
16	Mustakillik MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0

17	Yangihayot MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
18	Farovon MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
19	Ma'rifat MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
20	Taraqqiyot MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
21	Yangiobod MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
22	Chinor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
23	Xumo MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
24	Ziyokor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
25	Xoncharbog MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
26	Xayot MFY	1,45	546,65	1,40	94 976 000,0
27	Umid MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
28	O‘zbekiston MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
29	Turon MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
30	Tinchlik MFY	1,45	546,65	1,50	101 760 000,0
31	Orzu MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
32	Bunyodkor MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0
33	Oltin vodiy MFY	2,00	754,00	1,80	122 112 000,0

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-17-3-5-79-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

T/R	**Hudud nomi**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar**	**Sanoat korxonalari**	**Avtotransport vositalarini yuvish**	**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)**
1	Navoiy sh	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2026-yil 12-yanvardagi
VII-17-3-5-79-K/26 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Soliq kodeksi bilan oʻrnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

№	Shaharlar nomi	2026-yil uchun qoʻllanilgan koeffitsiyentlar (soʻmda)													
		Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanesjinslari, karbonat xom ashyosi, travertin soʻm/m.kub		Tabiiy bezaktoshdan bloklar soʻm/m.kub		Marmar soʻm/m.kub		Granitlar soʻm/m.kub		Gips toshi, gips va angidrid, ganch soʻm/tonna		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar soʻm/m.kub		Qum-shagʻal aralashmasi qurilish qumi, qumtoshlar soʻm/m.kub	
		Koeffitsiyent	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*	*Koef-fitsiyent*	*Soliq stavkasi*
1	**Navoiy sh.**	1,10	7 250,1	1,12	11 984,0	1,10	23 540,0	1,12	35 952,0	1,1	18 772,6	1,15	5 684,5	1,20	6 420,0